

## IRODA NAZARIYASI. IRODA JARAYONLARI VA SHAXSNING IRODAVIY SOHASI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna

KDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası v/b dotsenti, PhD

Ihomova Gulsanam Ikrom qizi

KDPI O'zbek tili va adabiyoti yo 'nalishi 1- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20205123>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iroda tushunchasining mohiyati, inson hayotidagi o'rnini va ahamiyati yoritiladi. Iroda-bu insonning maqsad sari intilishi, qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyati hamda o'z xatti-harakatlarini boshqara olishidir. Iroda, kishining shunday faolligidirki, bunday faollik oldindan biror maqsad qo'yib va shu maqsadga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo'r berish natijasida voqe bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** iroda, ixtiyoriy va ixtiyorsiz iroda, irodaning shakllanishi, irodaviy sifatlar, irodasizlik, qaror qabul qilish, sabr-toqat.

### ANNOTATION

This article discusses the essence of the concept of will, its role and significance in human life. Will is a person's desire for a goal, the ability to overcome difficulties and control their actions. Will is such an activity of a person that such activity occurs as a result of conscious effort, having set a goal in advance and determined the means to achieve this goal in advance.

**Keywords:** will, voluntary and involuntary will, formation of will, volitional qualities, unwillingness, decision-making, patience.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается сущность понятия воли, её роль и значение в жизни человека. Воля — это стремление человека к цели, способность преодолевать трудности и контролировать свои действия. Воля — это такая деятельность человека, которая происходит в результате сознательных усилий, при условии заранее поставленной цели и определения средств её достижения.

**Ключевые слова:** воля, добровольная и непроизвольная воля, формирование воли, волевые качества, нежелание, принятие решений, терпение.

### KIRISH

Iroda jarayonlari shaxsning psixologik rivojlanishida, uning xulq-atvori, qaror qabul qilish jarayoni va maqsad sari harakatini boshqara olish qobiliyatida muhim o'rin tutadi. Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlar emas, balki asosan oqilona, ongli harakatlardir.

Odam faqat o'ziga xos madaniy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdagina emas, balki tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishda ham ongli va oqilona ravishda ish tutadi. Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini yengish hamdir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

### ASOSIY QISM

Iroda jarayonlari shaxsning ongli faoliyati, xulq-atvori va maqsadga yo'naltirilgan harakatining eng muhim psixologik komponentlaridan biridir. Psixologik adabiyotlarda iroda maqsad sari yo'naltirilgan ongli harakat bo'lib, insonning ichki kechinmalari, ehtiyojlari va motivlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

Jumladan, A.V.Petrovskiy darsligida iroda- bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyat va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir, deb ta'riflanadi. Q.Turg'unov muallifidagi lug'atda ta'riflanishicha, iroda- shaxsning ongli harakatlarida, o'z-o'zini bilishida ifodalanadigan, ayniqsa, maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda namoyom bo'ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, iroda deganda biz oldindan belgilangan, qat'iy bir maqsad asosida amalga oshiriladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G.G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida iroda- bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi. Bundan tashqari insoniyat ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning yirik namoyondalari ijodi va faoliyatiga taalluqli ma'lumotlar qarorga kelish namunalari ularning ijtimoiy psixologik qiyofalarini aks ettirish imkoniyatiga egadir. Misol uchun, buyuk sarkarda Amir Temurning "Kuch adolatdadir" degan hikmati, Alisher Navoiyning "Zanjirband sher yengaman der" xitobi, Cho'lponning "Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir" chaqirig'i shular jumlasidandir. Ular javobgarlikni yuksak his etgan holda, o'z xalqining xohish-irodasini ifoda qilib, qat'iy irodaviy xatti-harakatlarini amalga oshirganlar. Shu bilan birga, ular o'zlarining ma'naviy, ruhiy qiyofalarini chuqur va ko'p yoqlama ochib berishga musharraf bo'lgan. Umuman olganda iroda shaxs faolligining ko'rinishi hisoblanadi.

Odam tevarak-atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo'shadi, voqelikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlarini ikki turkumga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, ikkinchisi ixtiyoriy harakatlardir. Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impulsiv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, aksa urish, ko'z qovog'ini ochib yumilishi va shu kabilar. Bu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi. Ixtiyorsiz harakatlar ba'zan, odamning aqliy faoliyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bunday hollarda odamning ixtiyorsiz harakatlari idrok qilinayotgan narsaning boshqa narsalardan keskin farq qilishi yoki odamning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Lekin ixtiyoriy harakat deganda, faqat jismoniy harakatlar emas, balki aqliy harakatlar ham tushuniladi. Masalan, ertalab uyg'onib darsga borishga o'zingni majbur qil, kechasi ham topshiriqni tugatib qo'y, doimiy parhez tutishga rioya qil va shu kabilar.

Kishining irodasi o'z sifatlari, ya'ni kuchi, axloqiyligi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo'ladi. Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchi, avvalo, intilishlarda ko'rina boshlaydi; biz kuchli va kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz xohishlarni farq qilamiz. Iroda kuchi tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorning mustahkamligida ko'rinadi. Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda ko'rinadi. Shuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarilish muddatini doim "galdan-galga" qoldiraverish va boshlangan ishni oxirigacha yetkaza olmaslik kuchsiz irodaning alomatidir. Irodasi kuchli kishilar deganda, biz o'zini mahkam tuta biladigan bosiq kishilarni tushunamiz. Ikkinchi jahon urushi yillarida bizning

askarlarimiz, razvedkachilarimiz, qahramon uchuvchilarimiz va temir yo'lichilarimiz kuchli irodaning yuksak namunalarini ko'rsatdilar. Iroda insonning ongli harakatlarini boshqaruvchi psixik fenomen sifatida qaraladi.

Irodaning buzilishi shaxsning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining zaiflashuvi bilan ifodalanadi. Bu holat qaror qabul qilish jarayonlarida beqarorlik, maqsadlarga erishishda sekinlik, va psixologik stressga nisbatan yuqori sezuvchanlik bilan namoyon bo'ladi. Irodasizlik xulq-atvori esa shaxsning o'z resurslarini optimal ishlatmasligi, majburiyatlarni kechiktirishi, ijtimoiy va shaxsiy vazifalarni bajarishda sustkashlik va motivatsiya yetishmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Psixologik tadqiqotlar irodasizlikning bir qator ichki va tashqi omillarga bog'liqligini ko'rsatadi. Ichki omillar qatoriga shaxsning temperament xususiyatlari, ruhiy barqarorlik darajasi, ichki motivatsiya va shaxsiy qadriyatlar kiradi. Tashqi omillar esa stress, muhitdagi nazorat darajasi, ijtimoiy ta'sir va tashqi motivatorlarning yetarli bo'lmasligi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, irodasizlikning kuchayishi psixologik sog'likka ham ta'sir qilishi, depressiv holatlar va psixogen bezovtalikni kuchaytirishi mumkin.

Irodasizlikni bartaraf etishda psixologik treninglar, motivatsion strategiyalar, stressni boshqarish texnikalari va ongli qaror qabul qilishni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Psixologlar shaxsning ichki va tashqi motivatsiya omillarini uyg'unlashtirish, irodani mustahkamlash uchun individual yondashuvlar ishlabchiqadilar. Shu bilan birga, irodasizlikni bartaraf etish shaxsning shaxsiy rivojlanishini, ijtimoiy faoliyatini va umumiy psixologik barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qaror qabul qilish-motivlar kurashi bilan bog'liq bo'lgan biron maqsadni amalga oshirish yo'llarini tanlash jarayoni qarorga kelish bilan tugaydi. Bu esa motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, seshanba kuni qayerga borish kerak: xiyobongami yoki sport zalgami degan fikrdagi motivlar kurashi natijasida kishi sport zalga borishga qaror qiladi. Ba'zi hollarda esa, motivlar kurashi uzoq, vaqtga "cho'zilib ketadi" va bu qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu -qat'iyatsizlik. Masalan, institutni tugatayotgan va tugatgan ba'zi bir yoshlar qaysi ishga kirish masalasini juda tez hal qiladilar, boshqa burglaries bo'lsa juda uzoq vaqt ikkilanib o'ylab yuradilar.

Ba'zi hollarda kishi qabul qilinadigan qarorning amalga oshirish imkoniyatlariga ishongan holda tez ma'lum bir qarorga keladi. Bu- qat'iyatlilik belgisi hisoblanadi.

Sabr-toqat irodaviy faoliyatning asosiy psixologik komponentlaridan biridir. U insonning vaqt davomida o'z harakatini bir maromda davom ettira olishi, kechikkan natijalarga bardosh berishi, emotsional taranglikni boshqara olishi bilan tavsiflanadi. Sabr-toqat asosan uzoq muddatli maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi, masalan, ta'lim olish, sport mashg'ulotlari, kasbiy rivojlanish yoki shaxsiy rejalarning amalga oshirilishi jarayonida.

### **Xulosa**

Iroda jarayonlari va shaxsning irodaviy sohasi insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini boshqaruvchi asosiy psixologik mexanizmlardan biridir. Mazkur tadqiqotda irodaning shakllanishi, qaror qabul qilish jarayonlari, sabr-toqat va qat'iyat kabi muhim irodaviy sifatlarning mazmuni hamda ularning inson hayotidagi o'rni tahlil qilindi. Iroda nafaqat shaxsning xulq-atvorini boshqaradi, balki uning emotsional barqarorligi, motivatsiyasi va ijtimoiy faoliyatda o'zini namoyon etish qobiliyatini ham belgilaydi.

Kishi biror qarorga kelishda o'z qarori va harakatlari uchun axloqiy mas'uliyat sezsa, uning irodasi axloqiy hisoblanadi. Kishining chinakam axloqiyliigi ma'naviy qiyofasi, so'zida va muhokamalarida emas, balki faoliyatida, ishida va asosan mehnatda, ya'ni mehnatga va ishning

o'ziga mehr qo'yishidanamoyon bo'ladi.O'zining intilish (mayllarida), qaror va harakatlarida har doim axloq tamoyillariga amal qiladigan kishilarni axloqli kishilar deb ataymiz.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. G'oziyev.E.G." Umumiy psixologiya". Toshkent 2002 yil 1-2-kitob.
2. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. "Umumoy psixologiya". Toshkent 2009 yil.
3. P.I.Ivanov M.E.Zufarova. " Umumiy psixologiya". Toshkent 2008 yil